

ILMIY ASARLARGA NISBATAN MUALLIFLIK HUQUQINING XUSUSIYATLARI

Qo'shaqova Shahzodaxon Dilshod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi magistranti.

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda ilmiy asarlarga mualliflik huquqi sohasidagi faoliyatlarning huquqiy jihatdan tartibga solish va ilmiy asarlarni himoya qilishda muallif huquqini ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, dastlab mualliflik huquqlari qanday usulda himoya qilinganligi haqida mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ilmiy asar, ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot, adabiy-badiiy asarlar, o'quv asarlar, publitsistik asarlar, Intellektual mulk markazi.

Bugungi kunda iqtisodiyot, siyosat yoki ta'lim kabi har qanday sohada o'rganish elementi shuningdek, dunyoning bir mintaqasida sodir bo'ladigan har qanday narsa boshqasiga ta'sir qilishi globallashtirish davrida yashayotganimizdan dalolat beradi. Ushbu hodisaning muhim ahamiyati bu - texnologiya bo'lib, uning rivojlanishi hozirgi davrgacha bo'lgan boshqa davrlarga qaraganda tezroq almashinuvga imkon berdi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, globallashtirish insoniyat jamoalarining o'zaro bog'liqligi va integratsiyasini kuchaytirishning boshqa ko'plab jihatlari o'z ichiga oladi. Integratsiya masalasida ham, o'z navbatida, global va mintaqaviy jarayonlari kengayishi oqibatida biz intellektual mulk obyektlarini ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Bunga javoban hozirda, barcha mamlakatlarda intellektual mulk huquqlarini himoya qilinishi va rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilyotganini guvohi bo'lyapmiz.

Xususan, O'zbekistonda ham mustaqillikdan so'ng intellektual mulk sohasiga bo'lgan e'tibor va uning rivojlanishi uchun bo'lgan harakatlarni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni intellektual mulk obyekti sifatida asarlar, fan adabiyot, san'at asarlarini, shuningdek, tovar va xizmat belgilarini inson aqliy faoliyati natijasida yaratilyotgan barcha obyektlar shu sohada bo'lganligi sababli muhofaza uchun harakatlar amalga oshirilyapti, hattoki, himoyasi uchun qonun-hujjatlar ham ishlab chiqarildi.

Shuningdek, mamlakatimiz ushbu sohani yanada rivojlantirishi uchun xalqaro shartnomalarga va konvensiyalarga a'zo bo'ldi. Ushbu sohada so'z yuritar ekanmiz mavzu doirasida yuzaga kelgan dolzarb muammolarga duch kelishimiz aniq, bunday muammolarga birin-ketin yechim axtaramiz.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda intellektual mulk huquqi sohasiga Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan katta e‘tibor qaratilyapti. Xususan, intellektual mulk sohasi dunyoning eng ilg‘or mamlakatlarida eng serdaromad soha hisoblanadi. Ayni vaqtda bugun jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ustuvor vazifalari barcha soha va tarmoqlar qatorida kabi ilmiy asarlarni huquqiy jihatdan himoya qilishni ham takomillashtirish, soha rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratishni talab etmoqda.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da belgilangan vazifalarga asoslanib, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishga qaratilgan “Ilm-fan sohasini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqish” loyihasi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni (mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, ixtirolarga bo‘lgan huquqlar va boshqalar) buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, shuningdek bu sohadagi davlat nazoratini kuchaytirish kabi masalalar yoritilgan.

Mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunlar mualliflarning asarlarini, shu jumladan ilmiy ishlarni himoya qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ilmiy ishlar jamiyatning muhim qismidir, chunki ular texnologik va tibbiy yutuqlar, akademik tadqiqotlar va innovatsiyalar uchun asos yaratadi. Biroq, mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunlarni ilmiy asarlarga qo‘llash bir qancha qiyinchilik va muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunlarni ilmiy ishlarga qo‘llashdagi muammolar tahlili berilgan.

Ilmiy ishlar ilmiy bilimlarni ilgari surish maqsadida yaratilgan asarlardir. Ularga ilmiy maqolalar, ilmiy jurnallar, darsliklar va konferentsiya materiallari kiradi. Ilmiy ishlar odatda akademik jurnallarda chop etiladi yoki ilmiy konferensiyalarda taqdim etiladi. Ular ko‘pincha ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqiladi va nashr etilishi yoki taqdim etilishidan oldin soha mutaxassislari tomonidan qattiq tekshiruvdan o‘tadi.

Mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunlar mualliflar va asl asarlar yaratuvchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu qonunlar muallif yoki ijodkorga o‘z asarlarini ko‘paytirish, tarqatish va namoyish qilish uchun mutlaq huquq beradi. Ilmiy ishlarga kelsak, mualliflik huquqini himoya qilish muallif yoki ijodkor o‘z ishi uchun hisoblanganligini va undan qanday foydalanilishini nazorat qila olishini ta‘minlash uchun muhimdir.

Biroq, mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlarni ilmiy asarlarga qo'llash bir qancha qiyinchilik va muammolarni keltirib chiqaradi.

Mualliflik huquqi va intellektual mulk o'rtasida bo'sh joy ochish huquqiy tarixni zamonaviy me'yorlarning boshlanishi yoki kutilishi sifatida o'qishga qarshi turishga yordam beradi, shu bilan birga mualliflik huquqining torroq ta'riflari ostida bosma matnlarda mulkni himoya qilish va himoya qilish uchun ishlatilgan ekstralegal amaliyotlar doirasini tan oladi.

Mualliflik huquqi va intellektual mulk bo'yicha stipendiya shuni ko'rsatadiki, bosma nashr tarixi qonun bilan va qonun mulk sifatida himoya qilinmayotgan yoki rad etgan narsalar bilan kuchli shakllangan.

Mualliflar tomonidan mulkiy huquqlarni amalga oshirish ilmiy-nazariy tahlilini qilishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda olimlarning sohaga oid nazariyalaridan foydalanamiz.

Avvalo, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni o'rganib asar muallifida bo'lgan huquqlari, majburiyati va javobgarlik belgilar kabi masalalarga atroflicha to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, hozirgi kunda muallifning roziligi bilan amalga oshirilgan, asarni chop etish, omma oldida namoyish etish, omma oldida ijro etish, efirga uzatish yoki boshqacha usulda yuborish yo'li bilan ilk bor asardan barchaning voqif bo'lishi uchun imkon beradigan harakat ko'p uchramoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" gi Qonunning 4-moddasida mualliflik huquqi:

- ✓ O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lishi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy turish joyiga ega bo'lishi;
- ✓ mualliflik huquqining boshqa dastlabki egalik qiluvchilarining asarlariga;
- ✓ O'zbekiston Respublikasida birinchi marta chop etilgan asarlarga;
- ✓ O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq

O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan asarlarga tatbiq etiladi.

Shuningdek, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni bir biridan ajratib oladigan bo'lsak, Bir so'z bilan aytganda, mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi hisoblangan va obyektiv shaklda ifodalangan ilmiy, adabiy va san'at asarlarga nisbatan tushunamiz.

Muallifga asardan foydalanganda mutlaq huquq va unga o'zgartirishlar kiritishdan himoya qilish ya'ni asarning daxlsizlik huquqiga ega bo'ladi.

Ba'zi hollarda masalan, ilmiy yoki ta'lim maqsadlarida muallifning nomi va olingan manbasi albatta ko'rsatilgan holda asardan erkin foydalanish huquqiga ega.

Mualliflik huquqi va intellektual mulk, raqamli kutubxonaning muammolari va muammolari va nihoyat raqamli kutubxonaning kelajagi muhokama qilinadi.

Shuningdek, bugungi kunda, raqamli texnologiya davri rivojlanishi, internetdan axborot resurslarini tanlash va olish, manbalarni indeksatsiya qilish, aloqa va

boshqarishni taqdim etish orqali eng muhim intellektual masalalarni yoritishga harakat qiladi.

Intellektual mulk huquqlari, elektron resurslarni ishlab chiqarish va uni boshqarish mavjudligi va raqamli resurslarni saqlash, xususiyatlari va raqamli kutubxonaga aylanish maqsadi, raqamli kutubxonaga o'tishning taklif qilingan bosqichlari raqamli texnologiya davrida vujudga kelmoqda.

Ko'pgina tadqiqotchilar raqamli kutubxonaning asosiy maqsadi an'anaviy kutubxonaning barcha funksiyalarini bajarishdir, ammo elektron raqamli kutubxonalar shaklida, ular faqat bajariladigan ishlar va raqamli kutubxonada mavjud bo'lgan manbalar uchun kengaytma hisoblanadi.

"Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida "mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan" tatbiq etilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, adabiy asarlar, ilmiy, o'quv, publitsistik va boshqa asarlar mualliflik huquqining obyekti hisoblanadi. Ushbu Qonunning 7-moddasida hosila asarlar ya'ni tarjimalar, ishlanma asarlar, referatlar, ANNOTATSIYALAR, muxtasar xulosalar, sharhlar, antologiyalar ham mualliflik huquqining obyekti bo'lishi haqida so'z boradi.

Ilmiy asarlarga nisbatan mualliflik huquqining buzilishi va ushbu turdagi asarlarni boshqa qaroqchi mualliflar tomonidan o'zlashtirib olish holatlari hozirgi ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan davrda yanada kuchayib ketdi va bu ushbu sohaning eng dolzarb muammolaridan bir hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi 2017-2022- yillar
2. 133-сoн 09.03.2020. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-4759202>
3. O'RQ-42-сoн 20.07.2006. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
4. Rustambekov, Islambek, and Mokhinur Bakhramova. "Legal Concept and Essence of International Arbitration." URL: <https://www.ijsshr.in/v5i1/Doc/18.pdf>: 122-129.
5. <https://folk.ntnu.no/muskulus/blog/copyright-for-scientists/>
6. <https://www.uib.no/en/ub/106619/copyright-own-scientific-work>
7. Bahramova, Mohinur Bahramovna. "Nizolarni onlayn hal qilish (ODR) va uning xalqaro yurisdiksiyasi." *Интернаука* 35-2 (2021): 43-44. https://www.elibrary.ru/ip_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrariy%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D46653440

8. Bakhramova, Mokhinur. "Perspectives Of Development Of Arbitration Legislation And Law Enforcement Practice In Uzbekistan." *European Journal of Molecular & Clinical Medicine* 7.1 (2020): 3586-3593.
https://ejmcm.com/article_4172_46bc5c3ed433bbd8f238921032e63b47.pdf
9. Bakhramova, Mokhinur. "The Origins of the ODR System and Its Advantages over other ADR Methods." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 527-530.
<http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1045>
10. Yusupov, Sardor. "ROBOTOTEXNIKA VA SUN'YIY INTELLEKTNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 2.4 (2022): 120-124.
<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/328>
11. Yusupov, Sardor. "Psychological Issues in Robotic systems and Advanced Computer Legal Regulation." *Journal of Intellectual Property and Human Rights* 1.8 (2022): 17-22. <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/198>
12. Yusupov, Sardor. "Legalization of Artificial Intelligence: Significance and Necessity." *Miasto Przyszłości* 26 (2022): 48-50.
<http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/417>
13. Yusupov, Sardor. "Sun'iy intellekt va robototexnika sohasi yutuqlarining qonunchilikka muvofiq yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishining ilmiy-nazariy tahlili." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.4 (2022): 685-692. <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellekt-va-robototexnika-sohasi-yutuqlarining-qonunchilikka-muvofiq-yuridik-shaxs-maqomiga-ega-bo-lishining-ilmiy-nazariy>
14. Bakhramova, Mokhinur. "Perspectives Of Development Of Arbitration Legislation And Law Enforcement Practice In Uzbekistan." *European Journal of Molecular & Clinical Medicine* 7.1 (2020): 3586-3593.
https://ejmcm.com/article_4172_46bc5c3ed433bbd8f238921032e63b47.pdf